Ko‘chaga chiqishdan oldin

Image not found or type unknown



13:00 / 09.02.2019 7038

Aqlli bolalar ko‘chaga chiqishdan oldin oila a’zolariga bu haqda xabar berib, ularga yaxshi tilaklar bildiradi va duolarini so‘raydi. Ota-onasidan alohida duo oladi.

Bunday qilish bolalarning odobli ekaniga ishoradir. Ota-onasidan, bobo-yu buvisidan, yaqinlardan duo olib, ko’chaga chiqqan bolaning kuni xayrli, darslari barakali, har bir harakati unumli bo‘ladi.

Dovud ibn Qaysdan rivoyat qilinadi:

«Bir odam menga xabar berdi. Abu Hurayra ertalab uyidan chiqmoqchi bo‘lsa, kiyimlarini kiyib, onasining oldiga kelar: «Assalomu alaykum, onajon va rohmatullohi va barokatuh! Meni kichkinaligimda tarbiya qilganingiz uchun Sizni Alloh yaxshi mukofotlasin!» der edi. U esa: «Seni ham, o‘g‘lim, keksayganimda

menga yaxshilik qilganing uchun Alloh yaxshi mukofotlasin!» der edi. Keyin (ko‘chaga) chiqardi. Qaytganida ham shunga o‘xshash gapni aytardi» (Hasan Marvaziy rivoyat qilgan).

«Ijtimoiy odoblar» kitobidan